MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSI ASOSIDA YOSHLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH

Ibragimov B.I.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-ma’naviy merosi asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarida umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Unda antroposentrik yondashuvning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi imkoniyatlari, shaxs kamoloti va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Amir Temur merosida ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, ilm-ma’rifat, halollik, bag‘rikenglik, xalqparvarlik va mas’uliyat g‘oyalari zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazining tarixiy-ma’naviy merosni targ‘ib etish, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy daxldorlik tuyg‘ularini rivojlantirishdagi ma’rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada mutafakkirlar merosidan foydalanish orqali talabalarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo mutafakkirlari, tarixiy-ma’naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, antroposentrik yondashuv, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, insonparvarlik, adolat, fuqarolik pozisiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri nafaqat yuqori bilim va kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, balki jamiyat, davlat va insoniyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglaydigan, mustaqil fikrlaydigan, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan hamda faol fuqarolik pozisiyasiga ega shaxslarni shakllantirishdan iborat. Zero, zamonaviy mutaxassisning ijtimoiy yetukligi uning kasbiy bilimlari bilangina emas, balki o‘z faoliyatining jamiyat hayotiga ta’sirini anglay olishi, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmasligi, o‘z zimmasidagi burch va majburiyatlarni vijdonan bajarishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy

DOI: 10.5281/zenodo.24284457

mas’uliyatni shakllantirish jarayonini antroposentrik yondashuv asosida tashkil etish alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Antroposentrik yondashuvda inson, uning qadr-qimmati, ehtiyojlari, qobiliyatlari, ichki motivatsiyasi, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy faoliyati pedagogik jarayonning markaziga qo‘yiladi. Bunda talaba tarbiyaviy ta’sirning passiv obekti sifatida emas, balki o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiradigan, ijtimoiy tajriba orttiradigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan faol subekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonda tarixiy-ma’naviy meros, milliy qadriyatlar va buyuk mutafakkirlarning ilmiy-ma’rifiy qarashlaridan foydalanish muhim pedagogik imkoniyat hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo xalqlari tarixan jahon sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan, ilm-fan, madaniyat, falsafa va ma’naviyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Mintaqada yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarning asarlarida ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, ilm-ma’rifat, halollik, bag‘rikenglik, ezgulik va jamiyatga xizmat qilish g‘oyalari bugungi yoshlar tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning boy tarixiy, ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish, saqlash va keng targ‘ib etishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-ma’rifiy maskandir. Markaz buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, ularning bebaho merosini yosh avlodga yetkazish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maskan yoshlarni tarixiy tafakkur, ma’rifatparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy daxldorlik ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyatlarga ega.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatning nazariy-pedagogik asoslari Umuminsoniy qadriyatlar insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, turli millat va xalqlar uchun umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-axloqiy mezonlar majmuasidir. Adolat, tinchlik, insonparvarlik, erkinlik, tenglik, halollik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik ana shunday qadriyatlar sirasiga kiradi. Ushbu qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi, insonlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlar va ijtimoiy hamkorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy mas’uliyat esa shaxsning jamiyat, davlat, oila, jamoa va boshqa insonlar oldidagi burchini anglash, o‘z xatti-harakatlari va qarorlarining oqibatlarini baholash, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish hamda umumiy manfaat yo‘lida ongli faoliyat olib borish qobiliyatini ifodalovchi murakkab integrativ sifatdir.

Antroposentrik yondashuvning mazmun-mohiyati ta’lim-tarbiya jarayonida inson shaxsini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, uning intellektual, ma’naviy,

axloqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini yaxlit rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda talabalarning individual xususiyatlari, hayotiy tajribasi, kasbiy qiziqishlari, ichki ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlari hisobga olinadi.Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida inson kamoloti uning bilim darajasi bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari, jamiyatga munosabati va boshqalarga foyda keltirish qobiliyati orqali ham baholangan. Shu jihatdan ularning ilmiy-falsafiy qarashlari bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ilgari surilgan fozil jamiyat, komil inson, adolat, ezgulik, ilm-ma’rifat va insonparvarlik haqidagi g‘oyalar alohida ahamiyatga ega. Mutafakkir ushbu asarida jamiyat taraqqiyoti, inson kamoloti va farovon hayotning asosiy omillarini chuqur falsafiy mushohadalar orqali yoritib bergan. Uning qarashlarida fozil jamiyatning ravnaqi ilmli, ma’rifatli, axloqli va ezgu maqsadlar yo‘lida birlashgan insonlar faoliyati bilan bog‘liq holda talqin etiladi.Forobiy merosida inson kamoloti jamiyat bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, uning ilmiy merosi talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, umumiy manfaatlarga daxldorlik, adolat va hamjihatlik tuyg‘ularini shakllantirishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida namoyon bo‘lgan ilmiy xolislik, haqiqatga sodiqlik va voqelikni dalillar asosida o‘rganish tamoyillari uning ilmiy tafakkurining muhim jihatlarini tashkil etadi. Beruniy turli xalqlarning tarixi, dini, urf-odatlari va madaniyatini xolisona o‘rganishga intilgan. Uning ilmiy faoliyatida boshqa xalqlarning madaniy merosiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, dalillarga tayanish va haqiqatni izlash muhim o‘rin egallaydi.

Ushbu meros talabalarda ilmiy halollik, intellektual mas’uliyat, mustaqil fikrlash, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat va kasbiy faoliyatda vijdonlilik fazilatlarini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sinoning «Donishnoma» asarida inson kamolotida aqliy bilim va tafakkurning ahamiyati, «Tib qonunlari» asarida esa inson salomatligini saqlash va tibbiy bilimlarning jamiyat hayotidagi o‘rni yoritilgan. Mutafakkirning ilmiy va falsafiy qarashlari insonning aqliy, jismoniy va ma’naviy rivojlanishini o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida anglashga imkon beradi. Ibn Sino merosi talabalarda bilim olishga intilish, o‘z ustida ishlash, faoliyatini tahlil qilish, shaxsiy kamchiliklarini anglash va muntazam takomillashishga intilish kabi refleksiv sifatlarni rivojlantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida adolat, davlat boshqaruvi, aql, bilim, axloq va insoniy fazilatlar masalalari keng yoritilgan. Asarda jamiyat farovonligi, insonlarning o‘zaro munosabatlari va davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga amal qilish muhim qadriyat sifatida talqin etiladi. Ushbu qarashlar yoshlarda adolatparvarlik, mas’uliyat, halollik va jamoa manfaatlarini hisobga olish kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida insoniy fazilatlar, axloqiy kamolot, mehr-muruvvat, xalqparvarlik va adolat masalalari alohida o‘rin egallaydi. Mutafakkir insonning qadr-qimmatini ulug‘lash, odamlarga yaxshilik qilish, halol mehnat qilish va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish g‘oyalarini ilgari suradi. Navoiy qarashlari talabalarda insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishning muhim ma’naviy-axloqiy asoslaridan biridir.

Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarida davlat va jamiyat boshqaruvi, adolat, tartib-intizom, sadoqat hamda mas’uliyat tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. Unda davlat boshqaruvida tartib, maslahat, adolat va mas’uliyatga amal qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qarashlar yoshlarda intizom, zimmasidagi vazifalarni vijdonan bajarish, jamoa manfaatlarini hisobga olish va kasbiy burchga mas’uliyat bilan yondashish kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosidagi umumiy jihat shundaki, ularda inson kamoloti jamiyat bilan uzviy aloqadorlikda talqin etiladi. Adolat, ilm-ma’rifat, insonparvarlik, halollik, bag‘rikenglik va xalq manfaatiga xizmat qilish g‘oyalari nafaqat alohida shaxsning ma’naviy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi antroposentrik yondashuvning asosiy tamoyili – insonni pedagogik jarayonning markaziga qo‘yish, uning shaxsiy kamolotini ijtimoiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasiga mos keladi. Umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning asosiy tarkibiy jihatlari Yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq bir nechta tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Birinchidan, qadriyatli-motivasion jihat – talabalarda adolat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik va jamiyatga xizmat qilish qadriyatlariga nisbatan ichki ehtiyojni shakllantirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, kognitiv-bilish jihati – umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, shaxs va jamiyat munosabatlari, fuqarolik burchi hamda kasbiy etika haqidagi bilimlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Uchinchidan, emosional-irodaviy jihat – boshqalarning muammolariga hamdardlik, ijtimoiy voqeliklarga befarq bo‘lmaslik, mas’uliyatli qaror qabul qilish va o‘z pozisiyasini asosli ravishda

himoya qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. To‘rtinchidan, faoliyatli-amaliy jihat – volontyorlik, ijtimoiy loyihalar, jamoatchilik tashabbuslari, ekologik tadbirlar va kasbiy faoliyat orqali umuminsoniy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas’uliyatni amalda namoyon etishni nazarda tutadi.

Beshinchidan, refleksiv-baholovchi jihat – o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, faoliyat natijalarini baholash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni anglash va o‘zini takomillashtirishga intilishni ifodalaydi. Mazkur tarkibiy qismlarning o‘zaro uyg‘unligi umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatning tashqi talab yoki majburiyat darajasida qolib ketmasdan, talaba shaxsining ichki e’tiqodi va barqaror hayotiy pozisiyasiga aylanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Islom sivilizatsiyasi markazi – umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning ma’naviy-ma’rifiy maskani Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning ko‘p asrlik ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish, saqlash, targ‘ib etish hamda uni yosh avlodga yetkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy maskan hisoblanadi. Markaz ekspozisiyalarida namoyish etiladigan tarixiy manbalar, noyob qo‘lyozmalar, ilmiy meros namunalari va zamonaviy interaktiv ko‘rgazmalar talabalarni Islom sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, buyuk mutafakkirlarning ilmiy faoliyati va ularning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan yaqindan tanishtirish imkonini beradi. Markazning pedagogik imkoniyatlarini antroposentrik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, uning ahamiyati, avvalo, talabada tarixiy merosga nisbatan shunchaki axborotga asoslangan qiziqishni emas, balki mazkur merosning bugungi inson va jamiyat hayotidagi ma’naviy-axloqiy ahamiyatini anglash ehtiyojini shakllantirishida namoyon bo‘ladi. Talabalar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosi bilan tanishish jarayonida ilm olish, adolatli bo‘lish, inson qadrini ulug‘lash, jamiyatga foyda keltirish va o‘z faoliyati uchun javobgarlikni his etish kabi tushunchalarning tarixiy ildizlarini anglaydilar. Bunda tarixiy meros talaba uchun faqat o‘tmish haqidagi bilimlar majmui bo‘lib qolmay, balki uning bugungi hayotiy qarashlari, kasbiy maqsadlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy omilga aylanadi.Islom sivilizatsiyasi markazining tarbiyaviy imkoniyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, tarixiy-ma’naviy tafakkurni rivojlantirish. Markaz ekspozisiyalari orqali talabalar Markaziy Osiyo xalqlarining ilmiy va ma’naviy taraqqiyot tarixini o‘rganadilar. Bu esa ularda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat va uni davom ettirish mas’uliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, ilmiy halollik va intellektual mas’uliyatni shakllantirish. Buyuk allomalarning ilmiy faoliyati bilan tanishish talabalarni bilimga intilish, haqiqatni izlash, dalillarga asoslanish, ilmiy xolislik va akademik halollik tamoyillariga amal

qilishga undaydi. Uchinchidan, umuminsoniy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash. Markazda o‘rganiladigan tarixiy manbalar va ma’naviy meros namunalari orqali talabalar adolat, insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, halollik va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini anglaydilar.

To‘rtinchidan, fuqarolik pozisiyasi va ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish. Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini chuqur anglagan talabalar yurtimizning bugungi taraqqiyoti va kelajagi uchun mas’uliyat hissini yanada teran anglaydilar. Bu esa ularda fuqarolik faolligi, ijtimoiy tashabbuskorlik hamda jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish motivatsiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday tashriflarni oddiy ekskursiya shaklida emas, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida amalga oshirish lozim. Bunda talaba tarixiy manbalarni kuzatuvchi bilangina cheklanmay, balki ularning mazmunini tahlil qiluvchi, zamonaviy hayot bilan bog‘lovchi va shaxsiy xulosalar chiqaruvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Xususan, Markazga tashrif doirasida uning ekspozisiyalari bilan tanishish, noyob qo‘lyozmalar va tarixiy manbalarni o‘rganish, interaktiv ko‘rgazmalardan foydalanish, konferensiyalar zalida tashkil etiladigan ilmiy-ma’rifiy chiqishlarni tinglash hamda Markaz faoliyatiga oid hujjatli filmlarni tomosha qilish ta’limiy-tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitadi. Antroposentrik yondashuv nuqtayi nazaridan bunday uchrashuvlarning samaradorligi talabaning tinglovchi sifatidagi ishtiroki bilangina emas, balki ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarini o‘z hayotiy tajribasi, kasbiy maqsadlari va ijtimoiy burchi bilan bog‘lay olishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tashrifdan keyin refleksiv suhbatlar, esse yozish, guruhiy munozaralar, ijtimoiy loyihalar ishlab chiqish va amaliy tashabbuslarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Bu faoliyatlar orqali tarixiy-ma’naviy bilimlar shaxsning amali y xulq-atvori va ijtimoiy pozisiyasiga aylanishi uchun pedagogik sharoit yaratiladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik modeli Yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi hamda Islom sivilizatsiyasi markazining ma’rifiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun antroposentrik yondashuvga asoslangan quyidagi pedagogik modelni taklif etish mumkin.

1.Maqsadli-motivasion bosqich. Ushbu bosqichda talabalarda tarixiy-ma’naviy merosni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatning shaxsiy hamda kasbiy hayotdagi ahamiyatini anglatish ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulotlardan oldin mavzuga oid muammoli savollar,

videomateriallar, mutafakkirlar hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar hamda mustaqil topshiriqlar orqali talabalarning ichki motivatsiyasi shakllantiriladi.

2.Bilish-tahliliybosqich. Talabalar Markaz ekspozisiyalari, tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar va interaktiv ko‘rgazmalar bilan tanishadilar. Bu jarayonda buyuk mutafakkirlarning ilmiy va ma’naviy qarashlari umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, adolat, insonparvarlik, ilmiy halollik va jamiyatga xizmat qilish mezonlari asosida tahlil qilinadi.

3.Qadriyatli-refleksiv bosqich.Talabalar o‘rgangan ma’lumotlarini shaxsiy hayotiy tajribasi, kasbiy maqsadlari va ijtimoiy burchi bilan bog‘laydilar. Munozara, esse, taqdimot va refleksiv suhbatlar orqali o‘z qarashlarini tahlil qilish hamda mas’uliyatli xulq-atvor mezonlarini belgilashga yo‘naltiriladilar.

4.Faoliyatli-amaliy bosqich.Talabalar tarixiy-ma’naviy merosda ilgari surilgan qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etishga yo‘naltiriladi. Bunda volontyorlik, xayriya tashabbuslari, ekologik tadbirlar, mahalla bilan hamkorlik, ma’rifiy loyihalar va jamoatchilik faoliyati muhim o‘rin tutadi.

5. Baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichi. Talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga oid bilimlari, ijtimoiy mas’uliyatga munosabati, mustaqil tashabbuslari, jamoaviy faoliyati va refleksiv ko‘nikmalari tahlil qilinadi. Bunda faqat ishtirok etilgan tadbirlar soni emas, balki talabalarning ichki motivatsiyasi, mustaqil qarorlari, faoliyatga munosabati va ijtimoiy foydali natijalarni yaratishga intilishi ham hisobga olinadi.

Mazkur modelning o‘ziga xos jihati shundaki, unda tarixiy-ma’naviy merosni o‘rganish, shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish va amaliy ijtimoiy faoliyat yagona pedagogik jarayon sifatida o‘zaro integratsiyalashadi. Umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yoshlar tashkilotlari faoliyati, ilmiy-amaliy anjumanlar, kasbiy amaliyot, mahalla bilan hamkorlik, ekologik aksiyalar va volontyorlik tashabbuslari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim. Mahalliy olimlar, jumladan, M. Quronov tadqiqotlarida yoshlarni milliy tarbiya, fuqarolik pozisiyasi va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bu qarashlar yosh avlod tarbiyasida shaxsning Vatan, jamiyat, oila va milliy qadriyatlar oldidagi burchini anglash muhimligini ko‘rsatadi. Biroq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va tarixiy-madaniy maskanlarga tashriflarning tarbiyaviy samaradorligi ularning talaba shaxsining ichki ehtiyojlari bilan qanchalik bog‘langaniga bevosita aloqador. Agar tashrif faqat tashkiliy tadbir yoki ekskursiya sifatida tashkil etilsa, uning ta’siri olingan axborot va vaqtinchalik taassurotlar bilan

cheklanib qolishi mumkin. Shu bois Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishda quyidagi metodologik tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Insonparvarlik tamoyili – har bir talabaning shaxsiy qadr-qimmati, qiziqishi, dunyoqarashi va individual rivojlanish xususiyatlarini e’tiborga olish. Subekt-subekt munosabatlari tamoyili – talabani tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisi va mustaqil fikrlovchi subekti sifatida e’tirof etish.

Qadriyatlar integratsiyasi tamoyili – milliy, tarixiy, diniy-ma’rifiy va umuminsoniy qadriyatlarni inson huquqlari, adolat, bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili – tarixiy merosni o‘rganishni real ijtimoiy faoliyat va kasbiy amaliyot bilan bog‘lash.

Refleksivlik tamoyili – talabaning o‘z faoliyati, qarorlari va xatti-harakatlari oqibatlarini mustaqil tahlil qilishiga sharoit yaratish. Demak, Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish mazmunini tarixiy-ma’naviy bilimlar bilan boyitish, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy-ma’naviy merosi yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning muhim tarixiy, falsafiy va pedagogik manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu merosda ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, ilm-ma’rifat, halollik, bag‘rikenglik va xalq manfaatiga xizmat qilish g‘oyalari bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, antroposentrik yondashuv inson shaxsini pedagogik jarayonning markaziga qo‘yishi, uning ichki motivatsiyasi, qadriyatlari, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy tajribasini hisobga olishi bilan yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Amir Temur merosidagi adolat, ilm, halollik, burch, insonparvarlik va xalq manfaatiga xizmat qilish g‘oyalari yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining muhim aksiologik va metodologik asoslari hisoblanadi.

To‘rtinchidan, Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy-ma’naviy merosni o‘rganish, yoshlarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, ilmiy halollik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy daxldorlik tuyg‘ularini rivojlantirish uchun keng ma’rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Beshinchidan, Markazga tashriflarning pedagogik samaradorligini oshirish uchun ularni tashrifdan oldingi motivasion tayyorgarlik, tashrif davomida faol kuzatuv va tahlil, tashrifdan keyingi refleksiya hamda ijtimoiy-amaliy faoliyat bosqichlari asosida tashkil etish lozim.

Oltinchidan, tarixiy-ma’naviy merosni o‘rganish yoshlarda faqat ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘usini emas, balki ushbu merosni davom ettirish, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish, kasbiy faoliyatda halol bo‘lish, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish mas’uliyatini ham shakllantirishi zarur.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosidan antroposentrik yondashuv asosida foydalanish yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning samarali pedagogik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tarixiy-ma’naviy meros shaxsning ichki e’tiqodi, ijtimoiy pozisiyasi va amaliy faoliyatini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy resursga aylanadi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ–406-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.

4. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar. –T.: Meros, 1991. –47 b.

5. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. –T.: Fan, 2001. – 52 b.

6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 88 b.

7. Abdiraxmanov A. Saodatga eltuvchi bilim. –T.: Movarounnahr, 2002. –720 b.